

BUGUNGI KUNDA YOSHLARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA ABDULLA AVLONIY QALAMIGA MANSUB "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINING AMIYATI

Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ozodova Zulfiya G'ayrat qizi

*Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyondasi bo'lmish Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining bugungi kunda yoshlarga tarbiya berishdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Abdulla Avloniyning o'ziga xos pedagogik mahorati hamda o'z zamonasidagi maorif sohasida qilgan yangiliklari ham maqoladan joy olgan. Ushbu maqola orqali "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining tahlili, unda keltirilgan xulqlar tahlili bilan tanishasiz.*

Kalit so'zlar: *pedagog, tarbiya, dramaturg, xulq, jadid, maorif, ko'nikma.*

KIRISH. Kishilik jamiyatining barcha davrlarida va barcha bosqichlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash jamiyatning muhim vazifasi sanalgan. Jumladan, bizning yurtimizda ham yoshlarning ta'lif-tarbiyasi jamiyat rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Yoshlarga ta'lif va tarbiya beruvchilar, albatta, pedagoglardir. Abdulla Avloniyni esa yetuk pedagog deya e'tirof etishimiz mumkin. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari nafaqat o'z zamonida ta'lif-tarbiya vositasi vazifasini o'tagan, balki hozirgi kunda ham yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu asar 1913-yilda yuqori sinf o'quvchilari uchun darslik sifatida chop etilgan. Shundan keyin bir necha bor darslik sifatida nashr etilgan va mana necha yillarki, o'zining ahamiyatini yo'qotmay, kutubxonalarning eng ko'zga tashlanib turadigan burchaklaridan joy olib kelmoqda. Ta'lif-tarbiyaga bo'lgan e'tibor ortgani sayin, ushbu asarning ham qimmati tobora oshib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasining ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildirganlar: "Yoshlarimizga munosib ta'lif berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda mактабгача ta'lif tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va olyi o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak".[1]

XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshlarida Turkistonda(Markaziy Osiyoda) pedagogik fikrlar va qarashlarning hamda xalq morifining rivojlanishida ilg'or ziyolilardan biri bo'lmish, jadid adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, dramaturg va olim Abdulla Avloniyning xizmatlari kattadir. U maktablar ochib,

shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga, maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab Gulistoni" asarlari bir necha bor nashr etildi.

ASOSIY QISM. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Mazkur asar shayx Sa'diyning "Guliston" asari usulida o'zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. Bu haqda muallifning o'zi shunday deydi:

...Turkiston minbarlarida o'z shevamizda (o'zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanlig'I o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adidbi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim.[2]

Mazkur asar o'ziga xos usulda yozilgan bo'lib, yaxshi va yomon xulqlar ta'riflarini o'z ichiga oladi. Dastlab, asaning birinchi yarmida yaxshi xulqlar, ularning belgilari, qanday qilib shunday xislatlarga ega bo'lish yo'llari har bir xulq uchun ajratilgan mavzuda keltirib o'tilgan. Asarning ikkinchi yarmi esa yomon xulqlarga bag'ishlangan. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining boshqa asarlarga o'xshamaydigan, takrorlanmas xususiyati shundaki, har bir mavzuda shu mavzuga xos she'r keltirilgan. Bu esa asarda keltirilgan fikrlarning ta'sirchanligini, o'quvchiga ijobiy ta'sir etish imkoniyatini oshiradi.

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz... Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbli va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda.[3]

Tarbiya - "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'undan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub katta qilmog'i lozimdir.

Ushbu satrlarda Abdulla Avloniy bolaning salomatligi hamda saodati uchun tarbiyaning suv va havoday zarur ekanligini ta'kidlaydi. Tarbiyachilarni esa kasal odamning daridini yengillashtiruvchi, uning kelajagini ta'minlovchi hamda badanini yot kasalliklardan forig' etuvchi tabibga qiyoslaydi. Haqiqatan ham, bolaga yaxshi xulqlarni o'rgatib, yomon xulqlardan saqlash xasta insonning kasaliga davo topish kabidir.

Xo'p, tarbiya biz uchun juda ham muhim ekan, hatto xastaga shifo kerak bo'lganidek, inson bolasiga tarbiya zarur ekan. Shu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, bu

tarbiya qachon beriladi? Qachondan bolani tarbiyalab boshlash zarur? Asardan bu savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan.

Demak, tarbiyani tug'ilgandanoq boshlash lozim ekan. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning barchamizga ma'lum bir jumlasini keltirib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur". Tarbiya biz uchun hayot, najot hamda saodat bo'lmos'i lozim. Agar to'g'ri tarbiya berilsagina, bola yoshligidan yaxshi xulqlarga oshno bo'lsagina, tarbiya sadatga yetaklaydi. U bizning saodatimiz bo'ladi. Yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Tuqorida aytib o'tganimizdek, har bir mavzuda shu mavzuga xos she'r keltirilgan. Quyida "Tarbiyaning zamoni" mavzusida keltirilgan she'rni ko'rishimiz mumkin:

*Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Bo'lur tarbiyat birla yo'lga solib.
Onasin olib asrag'on birla rom,
Qilmas kishi sa'y qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak.
Egur bemashaqqat kishi novdani,
To'g'unchi egur kuydirib kavdani.*

Har bir hikoyatning so'ngida keltirilgan she'riy misralar misoli yillar qa'ridan kelayotgan hikmatli so'zlar kabi yangraydi. Ushbu she'riy misralarda ham tarbiyaning yoshlikdan boshlanishi shunday sodda, hamma tushunadigan o'xshatishlar bilan berilganki, agar hukoyatning nasriy qismi bo'lmasdan, faqat she'riy qismi bo'lsa ham, muallif aytmoqchi bo'lgan gapning ma'nosini bemalol anglab olish mumkin.

Zamonasining peshqadam ziyolisi bo'lgan Abdulla Avloniy xalqning og'ir ahvoldidan kuyinib, uning qismatini yengillashtirish choralarini qidirib, buning dastlabki bosqichi kishilarni bilimli, ma'rifatli qilish, deb tushundi va butun ijtimoiy faoliyatini xalqning ma'naviy-marifiy ongini o'stirish va savodini chiqarish, o'z qadrini bilishi uchun ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishga sarfladi.[4]

Abdulla Avloniyning mazkur asarining yana bir o'ziga xos jihat shundaki, har bir xulq haqida so'z yurtitar ekan, u faqatgina o'z fikr hamda bilimlarini ifoda etib qolmasdan, bu xislat hamda xulqlar to'g'risida o'zidan avval yashab o'tgan insonlarning ham hikmatli so'zları, fikrlarini keltirib o'tadi. Masalan, Luqmoni hakim aytadi, Payg'ambarimiz demishilar, Hazrati Ali afandimiz aytadilarki, Ibn Sino hakim bunday deydi, Aflatun aytadiki, ko'rinishida ularning hikmatli so'zlarini keltirib, faqat o'zining fikrlarini yozib qo'ymasdan, ularni buyuklar so'zları bilan ham dalillab o'tadi.

Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur

qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lismizga sabab bo'lur... Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta;rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. bizlarni janolat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Allah taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur...

Payg'ambarimiz: "Ilmga amal qiluvchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguvchilardan bo'lmangiz", - demishlar.

*Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilon,
Qiymat-u qadrin qachon bilg'ay oni johil yilon.*

Ushbu hikoyatda ham ko'rishimiz mumkinki, ilmning inson uchun naqadar foydali ekanligi, uning foydalarini sanab ham ado etib bo'lmasligi haqida o'zining fikrini bildirib, keyin Payg'ambarimizning so'zлari orqali o'z fikrlarini dalillaydi. Keyin esa o'xshatishlarga boy she'riy misralar orqali o'z qarashlari hamda fikrlarini yanada mustahkamlagan. She'rda ilm xuddi ichi gavharga to'lgan daryoga o'xshatiladi. Bilamizki, daryo insonlar uchun hayot manbai hisoblanadi. Chunki insonlar undan suv manbai sifatida yerlarni sug'orish uchun, chanqoqni qondirish uchun foydalanadi. Muallif shularni nazarda tutgan bo'lsa ham ajab emas. Yana, ichi gur-u gavhar bialn to'lgan, deyilmoqda. Bundan chiqdi, ilm oraqli inson nafaqat ma'naviy jihatdan boy bo'lishi mumkin, balki moddiy jihatdan ham o'zini ta'minlashi mumkin. Ilmdan bexabar johillar esa ilonga o'xshatiladi. Bilamizki, ilonlar tabiatda ranglarni ko'ra olmaydi. Bu esa ilmsiz insonlarga nisbatan ma'joziyb o'xshatishdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari hozirgi kunda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda, ularni pedagoglik kasbiga o'rgatishda, jamiki yaxshi xislatlarni bolalarning ongiga singdirishda chinakam tayanch vazifasini o'taydi. Zero, hozirgi kunda biz malakali, yetuk hamda har tomonlama bilimga ega pedagoglarning ilmiga, ularning yaratgan asarlariga tayanib o'z mahoratimizni oshiramiz va bilim, ko'nikmlalarga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farvon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018.
3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
4. N. S. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.